



**“MAKTABGACHA TA’LIMDA PEDAGOGNING HUQUQLARI,
MAJBURIYATLARI va VAZIFALARI”**

Turan International University

Gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti

SMT-22-CU guruh 4-kurs talabasi

Boyxonova Dildora Alisherovna

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari va vazifalari yoritib berilgan. Unda pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o’rni, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashdagi mas’uliyati hamda kasbiy faoliyatini tartibga soluvchi asosiy jihatlar tahlil qilingan. Shuningdek, pedagog va ota-onalar hamkorligi, kasbiy etika va pedagogik faoliyatning ahamiyati ochib berilgan. Maqola maktabgacha ta’lim tizimida pedagogik faoliyat sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, pedagog, pedagogning huquqlari, pedagogning majburiyatlari, pedagogning vazifalari, ta’lim-tarbiya jarayoni, kasbiy etika, ota-onalar bilan hamkorlik, bola rivoji

Abstract

This article examines the rights, responsibilities, and duties of preschool educators. It highlights the role of the teacher in the educational and upbringing process, the responsibility for ensuring the comprehensive development of children, and the key aspects regulating professional pedagogical activity. In addition, the importance of cooperation between educators and parents, professional ethics, and the overall significance of pedagogical work in improving the quality of preschool education are discussed. The article contributes to enhancing the effectiveness of pedagogical practice in preschool education institutions.



Keywords: preschool education, educator, teachers' rights, teachers' responsibilities, teachers' duties, educational process, professional ethics, cooperation with parents, child development

O'zbekiston Prezidenti maktabgacha ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib, uni strategik ustuvorlik deb biladi; sohaning dolzarbligini ta'kidlab, ta'lim sifatini oshirish, qamrovni kengaytirish, modernizatsiya, innovatsiya, tarbiyachilar malakasini oshirish va maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy talablarga moslashtirish bo'yicha ko'p bor murojaat qilgan, xususan, 2030 yilgacha bo'lgan strategiyani belgilashda jahon hamjamiyati bilan hamkorlikni muhim deb hisoblaydi.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bog'ini bo'lishi bilan birga keyingi ta'lim tizimida, bolani maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kelgusida maktab bilimini yaxshi o'zlashtirishi, maktabga moslashuvining yengil o'tishi, bola shaxsida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish, qiyinchiliklarni bartaraf etishni amalga oshirishda bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga jalb etilganligi, ta'limga qamralganligi alohida ahamiyatga egadir.

Maktabgacha ta'lim — bu bolalarning hayotga tayyorgarligini shakllantiruvchi muhim bosqichdir. Ushbu davrda bola nafaqat bilim, balki hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogning roli beqiyosdir.

“Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining, 16.12.2019 yildagi O'RQ-595-son Qonunining 7-bobida Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, ularning huquq va majburiyatlari to'g'risida 39-44 moddalarida quydagilar berilgan:



39-modda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquq va majburiyatlari to'g'risida quydagilar berilgan;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari:

- kasbiy sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilish;
- ijodiy tashabbus ko'rsatish, ta'lim va tarbiya uslubiyotlarini, o'quv qo'llanmalari hamda ta'lim vositalarini erkin tanlash;
- maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda ishtirok etish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- pedagogik faoliyatidagi muvaffaqiyatlar uchun ma'naviy va moddiy rag'batlantirilish;
- maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi ilmiy, innovatsion, xalqaro faoliyatda ishtirok etish huquqiga egadirlar.
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini o'z kasbiy majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lmagan ish turlariga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari majburiyatlari:

- bolalarga professional darajada ta'lim va tarbiya berishi;
- pedagogik etikaga rioya etishi, bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, bolalarni zo'ravonlik ko'rinishlaridan himoya qilishi, ularni vatanparvarlik, mehnatga, qonuniy vakillariga hurmat bilan va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashi;
- maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini bajarishi;
- o'z malakasini oshirishi;
- o'z kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini takomillashtirishi shart.



Ta'lim-tarbiya jarayonidan siyosiy maqsadlarda yoki bolalarni qonunchilikka zid bo'lgan harakatlarni sodir etishga undash uchun foydalanish taqiqlanadi.

40-modda. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarining haftalik ish yuklamasi

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari uchun haftalik ish yuklamasining miqdorlari qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarining haftalik ish yuklamasi ushbu ish turi bo'yicha ish vaqti normalangan davomiyligining bir yarim baravari miqdoridan oshmasligi kerak.

Qonunchilikda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarining ayrim toifalari uchun haftalik ish yuklamasining boshqacha davomiyligi belgilanishi mumkin.

41-modda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash va dam olishi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash miqdori va tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining lavozim maoshlari quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimining lavozimi va malaka toifasiga muvofiq belgilangan bazaviy tarif stavkalari;
- lavozim maoshlariga ustamalar va qo'shimcha haqlar.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xodimlari uchun quyidagi malaka toifalari belgilanadi:

- o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga ega mutaxassis;
- bakalavr darajasiga yoki oliy ta'lim darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilguniga qadar olingan oliy ma'lumotga ega mutaxassis;



- bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ta'lim darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilguniga qadar olingan oliy ma'lumotga ega ikkinchi toifali mutaxassis;
- bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ta'lim darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilguniga qadar olingan oliy ma'lumotga ega birinchi toifali mutaxassis;
- bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ta'lim darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilguniga qadar olingan oliy ma'lumotga ega oliy toifali mutaxassis.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi, har yilgi uzaytirilgan haq to'lanadigan ta'til va qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

42-modda. Pedagogning kasbiy standarti

Ish beruvchilar tomonidan pedagogning kasbiy standarti:

- kadrlar siyosatini shakllantirish;
- pedagog kadrlarni ishga qabul qilish;
- mehnat shartnomalarini tuzish;
- lavozim yo'riqnomasini ishlab chiqish;
- mehnatga haq to'lash;
- pedagoglar o'qishini tashkil etish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarini attestatsiyadan o'tkazish chog'ida qo'llaniladi.

Pedagogning kasbiy standarti hududlarning madaniy, demografik va boshqa xususiyatlari inobatga olingan holda talablar bilan to'ldirilishi mumkin.

Pedagogning kasbiy standarti pedagogning shaxsiy sifatlariga nisbatan uning bilimlari, mahorati va ko'nikmalaridan ajralmas bo'lgan talablar qo'yadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.



Pedagogning malaka toifasi pedagogning kasbiy standartiga muvofiq beriladi.

43-modda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish besh yilda kamida bir marta amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish natijalariga ko'ra pedagog xodimning egallab turgan lavozimiga muvofiqligi aniqlanadi va uning malaka toifasi belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

44-modda. Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirishga doir cheklovlar

Muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklari yoki jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar, shuningdek qasddan jinoyatlar sodir etganligi uchun ilgari hukm qilingan shaxslar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Ilgari o'zining aybli harakatlari sababli mehnat shartnomasi tugatilgan shaxslar, shuningdek qo'llanilgan jazo chorasidan, sudlanganligi holati tugatilganligidan yoki olib tashlanganligidan hamda o'ziga nisbatan amnistiya yoki afv etish akti qo'llanilganligidan qat'i nazar, qasddan sodir etilgan jinoyatlar uchun ilgari hukm qilingan shaxslar, jinoyat ishlari aybdorligi to'g'risidagi masala hal etilmagan holda tugatilgan jinoyatlar sodir etgan shaxslar maktabgacha ta'lim va



tarbiya tizimi organlari va tashkilotlarining rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi mumkin emas.

Pedagogning asosiy vazifalari

Pedagog — bolalarning bilim va tarbiyasini shakllantiruvchi shaxsdir. Ularning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim va tarbiya berish: Pedagog bolalarni rivojlantiradi, ularning qobiliyatlarini aniqlaydi va ularga mos o'quv faoliyatini tashkil qiladi. Har bir bola bilan alohida ishlash, uning aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini kuzatish pedagogning asosiy vazifasidir.

2. O'yin va faoliyatni tashkil qilish: Maktabgacha yoshdagi bolalar asosan o'yin orqali o'rganadi. Pedagog o'yinlarni tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vosita sifatida ishlatadi, bolalarni ijodkorlikka va mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

3. Xavfsizlikni ta'minlash: Pedagog bolalar uchun xavfsiz muhit yaratadi, ularning sog'ligi va xavfsizligini nazorat qiladi. Shuningdek, favqulodda vaziyatlarda qanday harakat qilishni biladi.

4. Ota-onalar bilan hamkorlik: Pedagog va ota-onalar o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlaydi, bolalarning rivojlanishi haqida ota-onalarni xabardor qiladi va tarbiyaviy ishlarni birgalikda olib boradi.

5. Shaxs sifatida o'rnak bo'lish: Pedagog o'z shaxsiy fazilatlari bilan bolalarga xulq-atvorni ko'rsatadi. U bolalarda hurmat, sabr-toqat va halollik kabi qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa

Maktabgacha ta'lim pedagogi — nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, o'yin tashkilotchisi, xavfsizlik nazoratchisi va ota-onalar bilan hamkor bo'lgan



murabbiydir. U bolalarning shaxs sifatida to'liq rivojlanishida markaziy rol o'ynaydi.

Pedagogning ahamiyati

Maktabgacha ta'lim pedagogi — bu nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, o'yin tashkilotchisi va ota-onalar bilan hamkor bo'lgan murabbiydir. U bolalarning shaxs sifatida to'liq rivojlanishida markaziy rol o'ynaydi. Pedagogning mehnati natijasida bola mustaqil, ijodkor va jamiyatga mos shaxs sifatida voyaga yetadi.

1. Ta'lim va tarbiya beruvchi sifatida

Pedagogning asosiy vazifasi bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashdir. U:

- Bolalarning aqliy, jismoniy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini kuzatadi;
- Har bir bolaning qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil qiladi;
- O'yin, mashqlar, ijodiy faoliyat orqali bilim va ko'nikmalarni oshiradi.

2. O'yin va faoliyatni tashkil qiluvchi

Maktabgacha yoshdagi bolalar asosan o'yin orqali o'rganadi. Pedagog:

- Bolalar uchun turli xil o'yin va faoliyatlarni rejalashtiradi;
- O'yin orqali bolalarga muhim ko'nikmalarni o'rgatadi (insoniy qadriyatlar, mehnatga hurmat, muloqot qobiliyati);
- Bolalarni jamoada ishlashga o'rgatadi.

3. Nazoratchi va xavfsizlikni ta'minlovchi

Pedagog bolalarning xavfsizligini ham ta'minlaydi:

- Ular uchun xavfsiz muhit yaratadi;



- Har bir bolaning sogʻligi va ehtiyojlarini nazorat qiladi;
- Favqulodda vaziyatlarda qanday harakat qilishni biladi.

4. Ota-onalar bilan hamkor

Pedagog va ota-onalar oʻrtasida doimiy aloqani saqlash:

- Bolaning rivojlanishi va xulq-atvori haqida ota-onalarni xabardor qiladi;
- Zarur hollarda maslahat beradi, tarbiyaviy ishlarni birgalikda olib boradi;
- Ota-onalarni bolalar faoliyatiga jalb qiladi.

5. Shaxs sifatida oʻrnak

Pedagog bolalar uchun birinchi tarbiyaviy oʻrnak hisoblanadi:

- Shaxsiy fazilatlar bilan bolalarga xulq-atvorni koʻrsatadi;
- Hurmat, sabr-toqat, halollik kabi qadriyatlarni namoyish qiladi.

Maktabgacha taʼlim pedagogi bolalar hayotidagi birinchi va eng muhim oʻrnakdir. Uning bilim, tarbiya va eʼtibori orqali bolalar kelajakda oʻzini muvaffaqiyatli va toʻlaqonli shaxs sifatida rivojlantira oladi. Shu bois, pedagogning roli maktabgacha taʼlim tizimida beqiyos ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Oʻzbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining 2019-yil 22-oktabr “Maktabgacha taʼlim va tarbiya toʻgʻrisida”gi qonuni.
2. Qodirova .F.R, Toshpoʻlatova.Sh.,Kayumova.N.M, .Aʼzamova.M.N “Maktabgacha pedagogika” Tafakkur” 2019.
3. <https://kun.uz/>
4. <https://lex.uz/>